

Секция «Нетрадиционные источники энергии и их использование»

7. Онарқулов, К., & Юлдашев, А. (2017). ВИСМУТ-СУРМА ТЕЛЛУРИД ЮПҚА ПАРДАЛАРНИНГ ЭЛЕКТРОФИЗИК ХОССАЛАРИГА ТЕХНОЛОГИК ЖАРАЁННИНГ ТАЪСИРИ. *Scientific journal of the Fergana State University*, (2), 2-2.
8. Онаркулов, К., Юлдашев, А., и Юлдошкори, С. (2019). ВЛИЯНИЕ СТРУКТУРЫ ТЕНЗОРНОРЕЗИСТИВНЫХ ПЛЕНОК (Bi, Sb) 2Te3 НА ФИЗИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЗАРЯДА ПЕРЕНОСИМОЙ СРЕДЫ. *Научно-технический журнал*, 23(3), 124-128.
9. Юлдашев, Ш. А. (2023, ноябрь). ИССЛЕДОВАНИЕ ЭФФЕКТА АФН В НЕОДНОРОДНЫХ ТОНКИХ ПЛЕНКАХ. На конференции *Ферганского государственного университета* (с. 283-286)..
10. Onarqulov, K., & Yuldashev, S. (2023, November). YORUG'LIK VA MAGNIT TA'SIRLARDAN FOYDALANIB YUQORI ELEKTR MAYDON HOSIL QILISH. In *Fergana state university conference* (pp. 70-70).
11. Онаркулов, К. Э., Юлдашев, А. А., Юлдашев, Ш. А., & қизи Юлдашева, Ш. А. (2023). ПОЛУЧЕНИЕ СИЛЬНОГО ЭЛЕКТРИЧЕСКОГО ПОЛЯ ОТ СОЛНЕЧНОГО ТЕПЛА И ЭФФЕКТОВ МАГНИТНОГО ПОЛЯ.

**YORUG'LIK VA MAGNIT TA'SIRLARI YORDAMIDA YUQORI ELEKTR
MAYDONI HOSIL QILUVCHI QURILMA ISHLAB CHIQISH**

Yuldashev Shohjahon Abrorovich, Qosimova Zarnigor Bahromjon qizi

Farg'onan davlat universiteti

shohjahon6566@mail.ru

Annotatsiya: Katta elektr maydonlari fan va texnikaning turli sohalarida keng qo'llaniladi. Kvant elektronikasi qurilmalarda, ushbu qurilmani qo'llash bilan ixchamlashtirish, energiyani tejash va qurilmaning ishonchlilagini oshirish imkoniyati ochiladi. Bundan tashqari, katta elektr maydonlari tizimning ishonchliligi, avtonomligi va energetik mustaqilligini taminlash uchun robototexnika tizimlarida ishlataladi. Maqolada yorug'lik va magnit ta'sirlari yordamida yuqori elektr maydon hosil qiluvchi qurilma ishlab chiqilgan.


Kalit so'zlar: Super ko'p qatlam, xalkogenid, anizotrop bug'latish, bir jinsli bo'limgan, molekulyar oqim, optik kenglik, fototok.

Elektr maydonlarini olishning turli usullari mavjud, ammo bu qurilmalarning energiya manbayi, ancha yuqori quvvatga ega an'anaviy elektr energiyasi manbalaridir. Bunday qurilmalarning asosiy elementi, o'zgartirgichning butun qurilmasi narxining asosiy qismini tashkil qiladigan yuqori quvvatli tashqi elektr

Секция «Нетрадиционные источники энергии и их использование»

energiyasi manbayi hissoblanadi. Shunday qilib, ixchamlashtirish va elektr energiyasini tejash nuqtai nazaridan elektromagnit manbayi yordamida katta elektr maydonlarini olishning an'anaviy usullarining imkoniyatlari amalda tugadi. Bir jinsli bo'lmanan yarimo'tkazgichli strukturalarda fotovoltaik effektlardan foydalanishga asoslangan kuchli elektr maydonlarini olishning tubdan boshqacha istiqbolli yondashuvi mohiyatga ko'ra, texnik jihatdan berilayotgan ishga eng yaqini [1] qo'llaniladi. Barcha optoelektron qurilmalar uchun asosiy element yorug'lik manbayi va foto qabul qilgichdan tashkil topgan optron hisoblanadi. [1] ishda taklif qilingan qurilmalarda yorug'lik manbayi sifatida sochiluvchanligi kichik quyosh nuridan foydalaniladi. Bu ishda [1] yorug'lik oqimi yordamida elektr maydoni olinadi.

Taklif qilinayotgan optoelektron o'zgartirgich, boshqa [1] shunga o'xshash optoelektron qurilmalardan farqli ravishda, har xil tashqi manbalarning magnit maydonlari ishlatiladi. Katta elektr maydonlari fan va texnikaning turli sohalarida keng qo'llaniladi. Ushbu qurilmani kvant elektronikasi qurilmalarda qo'llash bilan ixchamlashtirish, energiyani tejash va qurilmaning ishonchlilagini oshirish imkoniyati ochiladi. Bundan tashqari, katta elektr maydonlari tizimning ishonchliligi, avtonomligi va energetik mustaqilligini taminlash uchun robototexnika tizimlarida ishlatiladi. Kimyoviy – texnologik jarayonlarda fotoelektrik stimulyator va murakkab molekulyar oqimlarni saralash vositasi sifatida ham elektr maydonlari ishlatiladi [2]. Taklif qilinayotgan qurilmani mikroelektron optosistemada qo'llagan holda, optoelektron qurilmalarning masofadan boshqarish imkoniyati yaxshilanadi va sezgirlik va ishonchliligi ortadi 1 – rasmda optoelektron magnito – optik o'zgartirgichning blok chizmasi keltirilgan.



1-rasm Magnit maydonning elektromagnit o'zgartirgichi.

MO – magnit maydoni oqimi; YO – Yorug’lik oqimi; YOYB – Yorug’lik oqimini yeg’ib paralel yo’naltiruvchi bloki; FME - fotomagnit element, agar FME yorug’lik nuriga perpendikulyar bo’lgan magnit maydonga joylashtirilsa, unda bir jinsli bo’lman yarimo’tkazgich fotomagnit EYuK paydo bo’ladi; MQ - Yuqori kirish qarshiligiga ega moslovchi qism bo’lib, u moslovchi qurilmada tranzistorlaridan iborat; SD – svetodiod (ishchi tok taxminan 100mA, ishchi kuchlanishi 1-30V); AE – AFK elementi – optik manbaga ega elektr generatori rejimida ishlaydigan foto qabul qilgich, ya’ni, AFK – element, yorug’lik oqimini qabul qilib, uni elektr maydoniga aylantiradi; IB - tashqi ishchi blok yoki chiqish yuklamasi; B – tashqi magnit maydonining yo’nalishi.

Qurilmaning ishlash prinsipi. Agar fotomagnit element magnit maydonida bo’lsa, kichik sochiluvchan nur (quyosh nurlari) magnit maydonining yo’nalishiga perpendikulyar o’tganda, fotomagnit elementda anomal yuqori fotomagnit kuchlanish AFM paydo bo’ladi[3]. Svetodiod yorug’lik chiqaruvchi diodga kiruvchi moslovchi qurilma orqali elektr zanjiri yordamida anomal yuqori fotomagnit kuchlanish svetodiogda uzatilib yana elektromagnit to’lqin nurga aylanadi. Svetodiogning yorug’lik signali optik kanal orqali AFK – elementga uzatiladi. AFK – elementda anomal katta kuchlanish paydo bo’ladi. AFK – ketma – ket ulangan bir qator mikrogeteroo’tishlar yoki boshqa potensial to’siqlardan tashkil topgan polikristall strukturali element. Bunday bir jinsli bo’lman yarimo’tkazgich yoritilganda, unda juda katta ventil fotokuchlanish paydo bo’ladi [4]. Magnit maydonning energiyasi katta kuchlanishli elektr maydoniga aylanadi. SD – AE Optojuftlikda yorug’lik manbayi sifatida kam quvvatli (taxminan 6Vt kichik) svetodioddan foydalangan bo’lib u 60 vattli lampochka kabi yorug’lik hosil qilgan u holda quvvat sarfi 8 baravar kam. Svetodiogning yana bir afzalligi ish paytida qizimaydi. Ma’lumki, AE qiziganda AFK katta miqdorda kamayadi [5]. Taklif qilinayotgan qurilmani plastmassa epoksid birikmasidan (E-6 tipli epoksid) himoya qobig’i bilan


Секция «Нетрадиционные источники энергии и их использование»

ta'minlagan holda, biz uni ish sharoitida tashqi ta'sirlardan (harorat va tebranish) ishonchli himoya qilishni ta'minlaymiz.

Fotomagnit element o'zgartirgichning barqarorligi va sezuvchanligini yuqori bo'lish [6] u magnit maydonining keng diapazoniga, sezgirlikka ega. AFK tuzilmasida [6] sezgirlik datchiklarnikidan bir tartib yuqori bo'ladi. Maksimal statsionar fotomagnit kuchlanish bo'limgan qiymati statsionar qiymatidan bir necha barobar oshib ketishi mumkin. 19kE darajadagi magnit maydonida fotomagnit kuchlanish 70V ga yetadi.

Qurilmani yaratishdan maqsad – optik nurlanishli past quvvatli har xil manbalarning magnit maydoni yordamida katta elektr maydonlarini olishdan iborat.

Ushbu qurilmani yaratishni amalga oshirish uchun epitaksial yupqa pardalar olish texnologiyasidan foydalanish mumkin. Qurilmalarning yupqa pardalar asosidagi ko'rinishi quyidagi chizmada keltirilgan. (2-rasm)



2-rasm

Qurilmalarning

yupqa pardalar asosidagi ko'rinishi

B – magnit maydon induksiyasi; YO – yorug'lik nurlanishining oqimini (quyosh nurlanishi) nazorat qilish; FME – fotomagnit elektromagnit maydon o'zgartirgichi; SZ – Yupqa pardali MOYa strukturali bog'lovchi zvenosi; SD – Svetodiod; AFK – yuqori kuchlanish hosil qilish uchun AFK elementi; Yu – yuklama.

Asosiy texnik kattaliklar

1. Svetodiod toki 0,03-0,04A, kuchlanish 1-30V, yorug'lik oqimi 240-300 lumen
2. Qurilma vazni: 150g;

Секция «Нетрадиционные источники энергии и их использование»

3. Spektral diapazon: ko'rinadigan va yaqin infraqizil nurlar sohasi;
4. Ish harorati: xona harorati;
5. Korpus: Asos konstruktsiya kronshteyn bilan bog'langan bo'lib E – 6 tipli epoksid qatlamlı (dielektrik) plastik quyilgan.
6. Qurilmaning chiqishidagi elektr maydonining maksimal qiymati 105 V/sm

Kuchli elektr maydonlarini olish uchun optoelektron o'zgartirgichda yuqori sezgirlikka ega anomal fotomaganit kuchlanish elementi ishlataladi, anomal fotomagnit kuchlanish elementi magnit maydonga perpendikulyar joylashganda yorug'lik nurlari kadmiy telluriddan olingan yupqa pardali yarimo'tkazgichda yutiladi va fotomagnit EYuK paydo bo'ladi. Svetodiod va AFK elementi optojuftidan iborat. Ushbu optojuftning optik nurlanish qabul qiluvchilari buzilgan kubik panjarali anizotrop simmetrik tuzilma. Bu anizotropiya CdTe materialini burchak ostida o'tkazishda hosil bo'ladi. Anomal fotomagnit kuchlanish strukturasining sirtida yutilish bir xil bo'limganligi natijasida anomal yuqori foto kuchlanish hosil qiladi. Chiqishdagi kuchlanish yuqori intensivlikka ega bo'lgan elektrostatik maydon hosil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Онаркулов, К. Э., Нурдинова, Р. А., Юлдашев, Ш. А., & Юлдашев, А. А. (2022). Разработка теплопреобразователя на основе аномального фотовольтаического эффекта.
2. Egamberdievich, O. K., Abrorovich, Y. S., Abduvositovich, Y. A., & Qizi, Y. S. A. (2022). Determination of Microparameters of Halcogenide Thin Movies. *Journal of Optoelectronics Laser*, 41(5), 523-530.
3. Onarkulov, K., Yuldashev, S., & Yuldashev, A. (2022). ФОТОМАГНИТНЫЙ ПРЕОБРАЗОВАТЕЛЬ. *Science and innovation*, 1(A4), 47-51.
4. Yuldashev, S. (2022). ХАЛЬКОГЕНИД ЎПҚА ПАРДАЛАРИДА АФК-ЭФФЕКТ. *Science and innovation*, 1(A6), 530-535.
5. Онаркулов, К., & Юлдашев, А. (2023). ГЕЛИООПТРОННЫЙ ИСТОЧНИК НАПРЯЖЕНИЯ. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (8), 30-34.
6. Yuldashev, A. (2022). OPTOTRANSFORMER. *Science and Innovation*, 1(7), 876-882.
7. Юлдашев, Ш. А. (2023, November). ИССЛЕДОВАНИЕ ЭФФЕКТА АФН В НЕОДНОРОДНЫХ ТОНКИХ ПЛЕНКАХ. In *Fergana state university conference* (pp. 283-286).
8. Onarqulov, K., & Yuldasheva, S. (2023, November). XALKOGENID BIR JINSLI BO'L MAGAN YUPQA PARDALARIDA AFME-EFFEKTNI O'RGANISH. In *Fergana state university conference* (pp. 64-64).